Abstract: This article analyzes the necessity of developing the service sector in rural and district areas, emphasizing the growing demand for modern services, the expansion of new directions, and the improvement of service quality. Particular focus is placed on the implementation of measures aimed at broadening the service spectrum in rural regions and its significance in ensuring employment, increasing household incomes, and improving well-being. On this basis, the conceptual directions for the development of the rural service sector are highlighted.

Key words: services, rural areas, conceptual directions, population needs, new jobs, economic growth, employment, social and economic problems.

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные причины необходимости развития сферы услуг в районах и сельской местности, в частности, повышение спроса населения на современные виды услуг, расширение новых направлений и повышение качества предоставляемых услуг. Особое внимание уделяется мерам по расширению спектра услуг в сельской местности и их роли в обеспечении занятости, увеличении доходов и благосостояния населения. На этой основе освещены концептуальные направления развития сферы услуг в сельских регионах.

Ключевые слова: услуги, сельская местность, концептуальные направления, потребности населения, новые рабочие места, экономический рост, занятость, социальные и экономические проблемы.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lib bormoqda. Jahon yalpi mahsulotining 60–70 foizi aynan ushbu soha hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, global miqyosda aholining 45,3 foizi qishloq hududlarida istiqomat qiladi [1]. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi jami qashshoq aholining 70 foizi ham aynan qishloq joylarda yashaydi [2].

Bugungi sharoitda qishloq hududlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali aholining bandlik darajasini oshirish, bu jarayonni konseptual yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xizmatlar sohasi orqali aholining turmush darajasini yuksaltirish, noformal mehnat bandligini kamaytirish, va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor kuchaymoqda.

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, ayniqsa qishloq joylarda xizmatlar turini kengaytirish, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)dan foydalanish orqali kommunal xizmatlar sifatini oshirish va bu orqali qishloq mehnat bozorida samarali bandlikni ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarda izchil tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohaga imtiyozlar berish, qishloq joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish va qishloq aholisi turmush darajasini shaharliklar darajasiga yetkazish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada [3] manbada qayd etilganidek, "qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, u yerda unumli ish o'rinlarini yaratish va aholining hayot sifatini oshirish" asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasini raqamli texnologiyalar va innovatsion faoliyat bilan uyg'unlashtirish, ishlab chiqarish, infratuzilma va ilmiy ta'minot integratsiyasi asosida rivojlantirish yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilayotgan qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholining bandligini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirish masalalari ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq etilgan. Xususan, D. Bell [4], D. Gelbreyt [5], M. Fridmen [6] va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida bu masalalar o'z ifodasini topgan.

Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholi bandligini oshirish masalalariga munosib hissa qo'shgan MDH mamlakatlari olimlari qatorida Z.I. Belkina [7], V.N. Bobkov [8], Y.G. Odegov [9], L.S. Degtyar [10] kabi tadqiqotchilarni alohida ta'kidlash mumkin.

O'zbekistonda ham mazkur yo'nalishda iqtisodchi olimlar O.S. Amanov [11], M.Q. Pardaeov [12], E.E. Rustamov [13], B.E. Tagayev [14], D.I. Usmonova [15], B.H. Qo'ziboyev [16] va boshqa olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq, ayniqsa qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va uni aholi bandligi bilan uzviy bog'liq holda o'rganish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish zarurligini taqozo etadi va mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Shuningdek, hozirgi davrda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish va aholi bandligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqishga oid tadqiqotlar yetarli emasligi, ushbu yo'nalishda ilmiy-uslubiy izlanishlarni chuqurlashtirishni dolzarb masalaga aylantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholi bandligini oshirishning mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini asoslab berish, shuningdek, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish asosiy maqsad etib belgilandi.

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, jadval va grafiklardan foydalanildi. Olingan natijalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali qishloq joylarda bandlikni oshirish bo'yicha amaliy yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish – O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridanoq xizmat ko'rsatish sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli, mamlakatimizda iqtisodiyotning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib, soha va tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ortidan milliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasini yuqori sur'atlarda rivojlantirish ta'minlanmoqda.

Hozirgi vaqtda o'sish ko'rsatkichi jadallashishining asosiy omillaridan biri – aholi talablarining muttasil oshib borayotganligi bilan bog'liq. Ayni paytda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish turlariga bo'lgan talab, ularning yangi sohalarini yaratish va faoliyat yuritayotganlarini kuchaytirishni taqozo etadi. Ushbu jarayon odamlarni yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash va ularning farovonligini oshirish imkonini yaratadi.

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning mustaqil tarmog'iga aylandi. Bu holat quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keldi:

- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida aholiga va tashkilotlarga pullik xizmat ko'rsatish oshib bordi;
- ko'plab yangi va zamonaviy xizmat turlari paydo bo'ldi;
- xizmat ko'rsatish korxonalari orasida raqobat kuchaydi;
- iste'molchilar talabi va dunyoqarashi o'zgardi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan quyidagi chora-tadbirlar xizmatlar sohasining rivojlanishiga imkon bermoqda:

sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, bolalar sportini rivojlantirish, kompyuterlashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kommunal xizmatlar, uy-joy qurilishi, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, ish bilan bandlikning mintaqaviy dasturlari, kichik biznesni rivojlantirish, bank sohasini isloh qilish va boshqa tarmoq dasturlarini amalga oshirish;

depozitar tizim, auditorlik, lizing, reklama, advokatlik, konsalting, sug'urta faoliyatlari, mikromoliyalashtirish va kredit uyushmalarini tashkil etish kabi yangi bozor institutlarining huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar;

transport-kommunikatsiya tizimlari, telefon aloqa stansiyalari va liniyalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, mehmonxonalar tarmog'ini rivojlantirish, qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi va gaz bilan ta'minlash dasturlarini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni hayotga joriy etish.



Bugungi kunda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishdagi jiddiy kamchiliklarni ta'kidlash joiz. Xususan, bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda mahalliy budjetlarni to'ldirishning istiqbolli manbai sifatida xizmat ko'rsatish imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Xizmat ko'rsatish sohasi, ayniqsa qishloq joylarida sust rivojlanmoqda. Bu yerda katta mablag' talab qilmaydigan va xususiy tadbirkorlik uchun jozibador bo'lgan ko'pgina xizmat turlari yetarli darajada rivojlanmayapti va qishloq aholisining ulardan foydalanish imkoniyatlari pastligicha qolmoqda.

O'zbekistonda 2019-2022 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi[17] taraqqiyotda yangi qadam bo'ldi. Ushbu hujjat soha rivojini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishga, ayniqsa, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'lib, shu asosda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida barqaror va o'sib boruvchi xizmat ko'rsatish sohasining bandlikni ta'minlash, aholi daromadi va farovonligini ko'tarishdagi ahamiyatini oshirishdan iborat bo'ldi. Mamlakat iqtisodiyotida bu kabi dasturlar qabul qilinishi natijasida Yalpi ichki mahsulotda xizmatlar sohasining ulushi 2023-yilda 34,6[18] foizga etdi. Bu shundan dalolat beradiki xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi aholining iste'mol talabi bilan chambarchas bog'liq. Sababi, YAIM tarkibida uning ulushi sohalar ichida yuqoriligi mamlakat iqtisodiyotida ham muhim sohalaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi YAIM tarkibida yuqori o'rinda turadi. Masalan AQSH YAIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 79 foizni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda har qanday soha va tarmoqlar rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Shu sababli mamlakatimizda ham xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy soha sifatida ko'rishimiz zarur deb hisoblanadi.

Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari	
Ijtimoiy yo'nalishlar:	Iqtisodiy yo'nalishlar:
Ta'lim xizmatlari: - maktabgacha ta'lim (davlat, xususiy, davlat ishtirokidagi); - o'rta maktab ta'limi (davlat va xususiy); - o'rta maxsus ta'lim (kollej, litsey va texnikumlar); - oliy ta'lim (davlat va xususiy); - o'quv (repetitorlik) markazlari (davlat va xususiy) va boshqalar.	Agro servis xizmatlari: - texnika orqali yerga ishlov berish (haydash, milorativ holatini oshirish va boshqalar); -veterinariya (hayvonlarni urug'lantirish, sog'ligini saqlash, nasl olish va boshqalar); - maxsus texnika transport vositalariga xizmat ko'rsatish (ta'mirlash) va boshqalar;
Sog'liqni saqlash xizmatlari: - ruman markaziy shifoxonalari; - qishloq vrachlik punktlari; - oilaviy poliklinika (ambulatoriya)lar; - stasionar (klinika) markazlar; - xususiy tibbiy muassasalar; - zamonaviy texnologiya asosida tashxis markazlari.	Turizm xizmatlari: - ekoturizm; - mehmonxonalar; - agrarturizm.
Ma'daniy – ma'naviy dam olish va sport xizmatlari: - kurort - sanatoriyalar (davlat va xususiy); - milliy teatr (kino, qo'g'irchoq teatr), muzeylar (davlat va xususiy); - istiroxat bog'lari (park ko'ngilochar pavilionlar, atraksionlar) va boshqalar; - sport (komplekslari) sog'lomlashtirish (trenajor zallar) muassasalari (davlat va xususiy) va boshqalar; - innovatsion ilmiy markazlar;	Maishiy xizmatlar: - uy-joy kommunal; - poyafzal ta'mirlash; - atele, tikuv; - duradgorlik (eshik, rom yasash); - sartaroshxonalar (go'zallik saloni); - elektro texnika priborlari va kompyuter uskunalarini o'rnatish, ta'mirlash va boshqalar; - mebellarni o'rnatish, ta'mirlash va boshqalar.
Aloqa xizmatlari: - telefon, internet aloqa liniyalari; - telefon va internet provayderlar (davlat va xususiy); - pochta va kurerlik xizmatlari (davlat va xususiy) va boshqalar;	Moliyaviy xizmatlar: - bank va lombardlar (davlat va xususiy); - sug'urta (davlat va xususiy) va boshqalar;
Kommunal xizmatlar: - gaz ta'minoti (davlat); - elektro – energiya ta'minoti (davlat); - ichimlik va issiq suv ta'minoti (davlat va xususiy) va boshqalar.	Transport xizmatlari: - yo'lovchi tashish.
	Savdo xizmatlari: - ulgurji; - chakana. - bozor sube'ktlari (ixtisoslashgan bozorlar) va boshqalar.

1-rasm. Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari



Ma'lumki, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, muayyan bir sohani rivojlantirishda unga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlamasdan, ularning yechimlarini topmasdan turib bu sohani kelajakda rivojlantirish qiyin hisoblanadi. Shu sababli ham qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda hukumat tomonidan mo'ljallangan dastur va qarorlar qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113 son "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorida xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida tezkor o'sish sura'tlarini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlantirish yo'nalishlari keltirilgan. Bizning fikrimizcha ushbu qarorga asosan qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari quyidagilardan iborat (1-rasm).

Xizmat ko'rsatish sohasining muammolari sifatida rivojlanishga salbiy ta'sir etayotgan sabablarni aniqlash orqali qishloq joylarini jadal rivojlantirish mumkin. Bizning fikrimizcha qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud (2 -rasm).

2-rasmdan ko'rish mumkinki qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirmoqchi bo'lsak unga bog'liq holatda xizmat ko'rsatish sohasi muammolarini inobatga olish, ularni bartaraf etish, aynan shu holda qishloq joylarining ijtimoiy – iqtisodiy kompleks rivojlantirish choralarini ko'rish zarurati birinchi o'ringa chiqadi.


Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining yaxshi rivojlanmaganligi, o'z navbatida, joylardagi ishsizlik darajasiga, aholining turmush sharoitiga, umuman xizmat ko'rsatish sohasiga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligidan kelib chiqib, yuqoridagi mavjud muammolarni hal qilishda, bizning fikrimizcha, quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

qishloq joylaridagi doimiy aholining talabi va ehtiyojining o'sib borishini hisobga olgan holda qishloq joylariga mutanosib xizmat ko'rsatish turi va shaklini yanada kengaytirish;

qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida muayyan imtiyozlar berish;

qishloq joylarida zamon talabidan kelib chiqib xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'lgan kompyuter xizmatlari, ta'lim xizmatlari, sog'liqni saqlash xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari va turizm-mexmonxona xizmatlarini qishloq joylarida rivojlantirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun imtiyozli foizlardagi bank kreditlari ajratish va qishloq joylarida har bir aholi uchun mo'ljallangan past foizli maqsadli kreditlar berish;

qishloq joylarining chekka xududlarida ish topishga talab haddan ortiq ko'p bo'lgan qishloq aholi punktlarida har qanday xizmat ko'rsatayotgan tadbirkorlarga 3-5 yilgacha soliqlarning bir qismi yoki barchasidan ozod qilish.



2-rasm. Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish muammolari¹.

1 Manba: muallif ishlanmaci



Bu tadbirkorlarning o'z – mablag'lari bilan xizmat ko'rsatish yoki boshqa faoliyat turlarini kengaytirish imkonini beradi. Soliq to'lovlarida imtiyozlar berish hozirgi davrda juda muximdir. Chunki, ko'pchilik tadbirkorlar bozor qonuniyatlariga ko'nikma hosil qilmaganlar. Bu holat, albatta tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli,

xizmat sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga soliq stavkasini pasaytirish hamda, byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lanadigan majburiy ajratmalarni kamaytirish lozim;

qishloq joylarida maishiy xizmat, kompyuter xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlar, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari kabi sohalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish;

maktab va kollej bitiruvchilariga xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va ularga yangi sub'yektlarni ochish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatishga qaratilgan veb saytlarni ishga tushirish orqali ko'nikmalar hosil qilish;

qishloq joylarida yashovchi aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi va turini ko'paytirish;

qishloq joylari uchun yangi istiqbolli xizmat turlarini jadal rivojlantirish;

qishloq joylari uchun mo'ljallangan investitsiyalarni (shu jumladan, chet el investitsiyalarini), zamonaviy texnologiya va uskunalarining jalb etilishini, axborot va tushuntirish ishlarini, konsalting, lizing, sug'urta va boshqa xizmatlar rivojlantirilishini tashkil etish;

qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish;

qishloq joylarida tadbirkorlikni, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan amaliy seminarlar tashkil etish;

qishloq joylarida mavjud xizmatlar bozoridagi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish va doimiy rag'batlantirib borish;

qishloq joylarida ko'rsatiladigan xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish;

qishloq joylarida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining o'z faoliyatini samarali boshqarishga erishish va takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqib, amaliyotga keng joriy etish;

qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasida mavjud muammo hamda kamchiliklarni o'rganish maqsadida tadbirkorlar o'rtasida muntazam tarzda so'rovnoma o'tkazish va hokazo.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

Mamlakatimizda so'nggi o'n yillikda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning mustaqil tarmog'iga aylandi. Buning asosiy sababi – tadbirkorlik va biznes muhitining ijobiy o'zgarishlari hamda aholining shaxsiy xarid qobiliyatining ortishi xizmat ko'rsatish sohasiga bo'lgan talabni shakllantirgani bilan izohlanadi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar ta'lim, sog'liqni saqlash, aloqa, bank va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishiga imkon yaratmoqda. Bu esa, aholining mavjud zarur xizmatlarga bo'lgan talabini o'z vaqtida va sifatli tarzda qondirish imkonini oshiradi.

Qishloq joylarda aholining doimiy bandligini ta'minlash va oshirish uchun davlat istiqbolli dasturlar doirasida inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Tadbirkorlik muhitining shakllanishi ijobiy xulosa sifatida e'tirof etiladi: birgina yangi korxonaning tashkil etilishi natijasida 2030–yilga kelib biznes muhiti qishloq aholisi bandligini ta'minlashda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli davlat inflyatsiya darajasini jilovlashda ijtimoiy-iqtisodiy kompleks dasturlar orqali samarali harakat qilishi lozim.

Globalashuv sharoitida qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasida band aholining ulushini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, 2003–yilda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasida bandlar soni 3047,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2030–yilga kelib ushbu ko'rsatkich 4690,5 ming kishiga yetishi kutilmoqda. Bu esa, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining barqaror va mutanosib rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://www.eurekalert.org/pub_releases/2019-03/ifpr-2gf032219.php
2. <https://www.undp.org/content/undp/en/home.html>
3. O'zbekiston Respublikasini 2017–2021 yillarga yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi 2017–yil 7–fevraldagi PF–4947–son Farmoni. <https://lex.uz/acts/3107036>
4. Bell D. *The Winding Passage: Sociological Essays and Journeys*. – Routledge, 2019. – 399 b.
5. Galbraith J. K. *The Culture of Contentment*. – Princeton University Press, 2017. – 176 b.
6. Friedman M. *Money and Economic Development* / M. Friedman // 2013. № 4. – B. 70.
7. Белкина З.И. *Экономика: учебно-методический комплекс*. – М.: Проспект, 2015. – 224 с.
8. Бобков В.Н., Вередюк О.В., Колосова Р.П., Разумова Т.О. *Занятость и социальная прекаризация в России: введение в анализ*. – М.: ТЭИС, 2014. – 96 с.
9. Одегов Ю.Г. *Управление персоналом в структурно-логических схемах*. – М.: Академический проект, 2005. – 348 с.



10. Дегтярь Л.С. *Мировой опыт пенсионных реформ и реформирование пенсионной системы в России.* – М., 2002. – 142 с.
11. Amanov O.A. *Qishloq mehnat bozorini samarali rivojlantirish asosida aholini ish bilan bandligini oshirish: iqt. fan. fal. dok. (PhD) avtoreferat.* – T.: 2019. – 48 b.
12. Pardaev M.Q. *Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining ayrim muammolari.* – Monografiya. – T.: Navruz, 2014. – 264 b.
13. Rustamov E.E. *Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari: iqt. fan. fal. dok. (PhD) avtoreferat.* – T.: 2019. – 65 b.
14. Tagaev B.E. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida norasmiy mehnat bilan bandlik darajasini kamaytirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. (DSc) avtoreferat.* – T.: 2021. – 67 b.
15. Usmonova D.I. *Qishloq aholisiga savdo xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish: iqt. fan. fal. dok. (PhD) avtoreferat.* – Samarqand, 2018. – 57 b.
16. Qo'ziboev B.H. *Mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. fal. dok. (PhD) avtoreferat.* – Urganch, 2021. – 52 b.
17. "2016–2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016–yil 26–fevraldagi 55–sonli Qarori.
18. <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS?contextual=default&locations=UZ&view=chart>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>